

MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA TALABALARING INDIVIDUAL SHAXS
XUSUSIYATLARINI TAHLIL ETISH

Umarova Zaxro Abduraxim qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Matematika va ta'limga
axborot texnologiyalari
kafedrasi v.b. dotsenti, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqil ta'limga samarali tashkil etishda ta'limga
oluvchilarining individual shaxs xususiyatlarini inobatga olishning ahamiyati, ularning ta'limga
olish uslublariga ko'ra talabalarining 4 ta'ifasi batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'limga, audial, visual, kinestetik, digital, mediasurs.

Аннотация: В данной статье подробно описывается важность учета
индивидуальных особенностей обучающихся в эффективной организации
самостоятельного обучения, а также выделяются 4 категории обучающихся по их
стилям обучения.

Ключевые слова: самообразования, аудиал, визуал, кинестетик, дигитал,
медиаресурс.


Mustaqil ta'limga masalasi, bugungi kundagi pedagogika sohasi oldida turgan eng
dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Bo'lajak mutaxassislarini tayyorlashda va o'quv
jarayoni sifatini oshirishda talabalarining ijodiy faoliyat yuritishi va ularning intellektual
qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradigan mustaqil ta'limga jarayoni alohida o'rinn tutadi.
Sababi "o'z mehnati bilan olingan bilim juda katta qiymatga ega. Shunday qilib, o'qitishning
muvaffaqiyati talabalarining bilim olishga bo'lgan munosabati, bilim olishga intilishi, bilim,
ko'nikmalarni ongli ravishda va mustaqil ravishda o'zlashtirishi bilan belgilanadi"[2]

Bugungi kunga kelib, mustaqil ta'limga bu oliy ta'limga tashkilotlari talabalarida o'quv
materialini ijodiy va samarali qabul qilish va tushunish uchun zarur ma'lumotlarni mustaqil
izlash ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlashga yo'naltirilgan; auditoriya va
auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarida talabalarining bilish faoliyatining turli – axborot va
ma'lumotlarni tahlil qilish, ta'limga vaqtini rejalashtirish va boshqarish ko'nikmalarini
rivojlantirish; ta'limga tarbiya ishlarni samarali va oqilona tashkil etish ko'nikma va
malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan shakli sifatida qaraladi.

Tadqiqot ishimiz doirasida biz mustaqil ta'limga tushunchasini quyidagicha talqin etdik:
mustaqil ta'limga – bu maxsus ajratilgan vaqtda tashkil etilgan, o'qituvchi tomonidan
belgilangan didaktik maqsadlar (yangi ma'lumotlarni izlash, ularni anglash, bilim olish,
avvalgilari bilan umumlashtirish, tizimlashtirish va mustahkamlash, malaka va
ko'nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirish)ga erishish borasida amalga oshiriladigan
talabalarining har qanday tizimli tashkil etilgan ta'limi faoliyatidir.

Mustaqil ta'lif jarayonini samarali tashkil etishda ta'lif oluvchilarning individual shaxs xususiyatlarini, ularning ta'lif olish uslublarini inobatga olish muhim hisoblanadi. Har bir talaba ma'lumotni turli axborot qabul qilish kanallari orqali idrok etadi. Lekin, mazkur kanallardan qaysidir biri ko'proq rivojlanganligi sababli ta'lif oluvchining axborotni aynan o'sha kanal orqali yaxshiroq qabul qilishi va osonroq o'zlashtirishi fanga ma'lum.

Psixologiya sohasi mutaxassislari vogelikni idrok etish xususiyatlariga ko'ra ta'lif oluvchilarni shartli ravishda 4 toifaga: vizual, audial, kinestetik va diskretik kabi guruhlarga bo'lib o'rghanishadi (1-rasm).



rasm. Ta'lif olish uslubiga ko'ra talabalarning toifalari.

Aksariyat talabalar tashqi dunyoni idrok etishda ko'rghanlariga ishonadilar. Soha mutaxassislarining tadqiqot natijalariga ko'ra, talaba ko'rish orqali ma'lumotlarning qariyb 88%ini idrok etadi. "1000 marta eshitgandan ko'ra, bir bor ko'rish yaxshidir" degan ibora mazkur tip vakillarining shiori deb aytish o'rinnlidir. Vizuallar – tasvir va obrazlar orqali dunyoni anglaydiganlardir.

Vizual tipga mansub talabaga shovqinli auditoriyaning salbiy ta'siri kam, shu sababli u doskada yozilgan vazifani boshqalardan ko'ra tezroq anglay oladi. Bu mazkur tip vakillarining kuchli tomonlaridan biri hisoblanadi.

Audiallar – tashqi dunyoni eshitish orqali idrok etuvchi insonlardir. Audiallar uchun dunyoni bilishda asosiy sezgi organ – bu eshitish organlaridir. Audiallar nashr etilgan kitoblardan ko'ra audio kitoblar orqali taqdim etilgan ma'lumotlarni yaxshiroq o'zlashtiradi.

Kinestetiklarga biror bir ma'lumotni uzoq muddat davomida mantiqiy asoslar bilan tushuntirish samara bermasligi mumkin, chunki ular ma'lumotni his-tuyg'ular orqali ushlab ko'rishi, his qilishi va o'z tajribasi hamda his-tuyg'ulari orqali anglashi lozim.

Diskretiklar ("digital") – raqamlar, belgilar, mantiqiy dalillar yordamida mantiqiy tushunish orqali ma'lumotni idrok etuvchi insonlar bo'lib, ular ma'no, mazmun, muhimlik va funksionallikka ko'proq e'tibor berishadi. Bu toifa vakillari – barcha ma'lumotlarni "mantiqli-mantiqsiz" formatida idrok etadilar.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, hayotda to'liq u yoki bu toifaga mos keluvchi insonlar, ya'ni 100% vizual yoki audial bo'lishi mumkin emas. Ularda qaysidir toifaga moyillik ustunroq bo'ladi. Shunga asosan, mustaqil ta'lim jarayonini tashkil eetishda ta'lim resurslarini to'g'ri tanlash, talabalarning individual xususiyatlari, qiziqishlari, ta'lim olish uslublari va talablarini inobatga olgan holda tanlash zarur.

Ta'lim jarayonida mediaresurslardan foydalanish ta'lim berish va ta'lim olish samaradorligini oshirish uchun matn, rasm, grafika, illustratsiya, infografika, audio, video va boshqalarni birlashtirish va qo'llashni anglatadi.[1] Mediaresurslar, har bir ta'lim oluvchining individual shaxs xususiyatlariga mos tarzda ma'lumotni taqdim etish imkonini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil ta'lim jarayonining samaradorligi har tomonlama ta'lim oluvchilarning ta'lim olish uslublari va talablariga mos holda ta'lim kontenti bilan ta'minlashiga bevosita bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Umarova Z.A. Media resources as an effective means in teaching and learning // Инновационное развитие науки и образования международнауа научно - практическауа конференциуа, – Казахстан, 2020. 135-136 стр.
2. Миронова Е.Д. Современные информационные технологии как средство повышениуа эффективности обучениуа // Инновационное образование и экономика. – Москва, 2015. – Т. 1. – № 19.
3. Umarova F.A. Use of modern information and communication technologies in the training of designers // Journal of Central Asian Social Studies, 2020
4. Умаров Х.А., Умарова З.А. Использование электронно-образовательных ресурсов в целях создания образовательной экосистемы // "Advanced Information Technologies and Scientific Computing" International Scientific Conference Proceedings. – Самара, 2018. Стр.1318-1320.